107 -nuqtadan chegara chizig'i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 781 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 153 metr masofada zovurni kesib o'tib, zovur bo'yida joylashgan 108-nuqtaga tutashadi.(*shimoliy kenglik 41°03'01,431"*, *sharqiy uzoqlik 71°24'41,504"*).

108 -nuqtadan chegara chizig'i g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda Zovurning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 410 metr masofani o'tib, keyin g'arbiy yo'nalishda 208 metr masofani o'tib, so'ng g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 225 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 109-nuqtaga tutashadi.(*shimoliy kenglik 41°03'10,741"*, *sharqiy uzoqlik 71°24'08,976"*).

109 -nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan Chorbuloqsoy soyga o'tadi va umumiy shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg'og'i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 283 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 110-nuqtaga tutashadi.(*shimoliy kenglik 41°03'18,055"*, *sharqiy uzoqlik 71°24'05,876"*).

110 -nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-g'arbiy yo'nalishda Chorbuloqsoy soyining suv oqimiga qarshi chap qirg'og'i bilan 591 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 111-nuqtaga tutashadi.(*shimoliy kenglik 41°03'32,500"*, *sharqiy uzoqlik 71°23'50,339"*).

111 -nuqtadan chegara chizig'i umumiy shimoliy yo'nalishda Chorbuloqsoy soyining suv oqimiga qarshi chap qirg'og'i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 321 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 112-nuqtaga tutashadi.(*shimoliy kenglik 41°03'41,587"*, *sharqiy uzoqlik 71°23'48,940"*).

112 -nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda Chorbuloqsoy soyining suv oqimiga qarshi chap qirg'og'i bilan 323 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 113-nuqtaga tutashadi.(*shimoliy kenglik 41°03'50,196"*, *sharqiy uzoqlik 71°23'45,908"*).

113 -nuqtadan chegara chizig'i Chorbuloqsoy soyidan ariqqa o'tadi va umumiy shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 659 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 114-nuqtaga tutashadi.(*shimoliy kenglik 41°04'09,931"*, *sharqiy uzoqlik 71°23'35,888"*).

114 -nuqtadan chegara chizig'i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 56 metr masofani o'tib, keyin umumiy shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 562 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 115-nuqtaga tutashadi.(*shimoliy kenglik 41°04'24,308"*, *sharqiy uzoqlik 71°23'23,631"*).

115 -nuqtadan chegara chizig'i umumiy shimoliy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 306 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 467 metr masofani o'tib, so'ng to'g'ri chiziq orqali sharqiy yo'nalishda 31 metr masofada

Chorbuloqsoy soyini kesib o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 116-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04'46,569", sharqiy uzoqlik 71°23'34,207")*.

116 -nuqtadan chegara chizig'i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda Chorbuloqsoy soyining suv oqimiga qarshi o'ng qirg'og'i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 855 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 611 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 117-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05'26,892", sharqiy uzoqlik 71°24'00,678")*.

117 -nuqtadan chegara to'g'ri chegara chizig'i orqali g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 24 metr masofada Chorbuloqsoy soyini kesib o'tib, ariqqa tutashadi va shimoliy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 84 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 127 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 118-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05'33,780", sharqiy uzoqlik 71°24'00,909")*.

118 -nuqtadan chegara to'g'ri chegara chizig'i orqali ariqni kesib o'tib, ariqqa tutashadi va shimoliy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 150 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 290 metr masofada arqini kesib o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 119-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05'47,508", sharqiy uzoqlik 71°24'04,592")*.

119 -nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 156 metr masofani o'tib, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 298 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 120-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°06'01,080", sharqiy uzoqlik 71°24'05,180")*.

120 -nuqtadan chegara chizig'i avval dala tuproq yo'lidani ariqqa o'tadi va shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 206 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 170 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 79 metr masofani o'tib, so'ngra shimoliy yo'nalishda 115 metr masofada dala tuproq yo'lining kesib o'tib, ariq bo'yida joylashgan 121-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°06'18,548", sharqiy uzoqlik 71°24'03,174")*.

121 -nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 133 metr masofani o'tib, keyin shimoliy yo'nalishda 62 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 311 metr masofada beton ariqni, avtomobil yo'lini kesib o'tib, Qirg'iziston Respublikasi, Kosonsoy va Chust tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, sim to'siq bo'yida joylashgan 122-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°06'31,791", sharqiy uzoqlik 71°23'51,303")*.

F dan A gacha Qirg'iziston Respublikasi yerlari bilan 122-1-nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

122-nuqtadan 1-nuqtagacha chegara chizig'i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha mavjud chegara chizig'i bo'yicha olindi.boshlang'ich 1- nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41°18'39,920", sharqiy uzoqlik 71°35'17,664")*.

**Namangan viloyati Mingbuloq tumanining ma'muriy-hududiy
chegarasini belgilash bo'yicha chegara chizig'ining**

T A V S I F I

Mingbuloq, Pop va To'raqo'rg'on tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, Sirdaryo daryosi qirg'og'ida joylashgan nuqta boshlang'ich 1 - nuqta deb qabul qilindi. (*WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°52'16,369", sharqiy uzoqlik koordinatalari 71°16'52,119"*).

A dan B gacha To'raqo'rg'on tumani yerlari bilan 1 - 32 - nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig'i Sirdaryo daryosi qirg'og'idan ariqqa o'tadi, keyin ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo'nalishda 176 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, so'ng umumiy janubiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1253 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi, so'ngra yo'lining sharq tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 280 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'30,837", sharqiy uzoqlik 71°17'04,238"*)

2-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lini kesib o'tadi va yo'lining sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda 275 metr masofani o'tib, keyin yo'lni kesib o'tadi va zovurga tutashadi, so'ng g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 453 metr, so'ngra janubiy-g'arbiy yo'nalishda 922 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, zovur bo'yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'06,260", sharqiy uzoqlik 71°16'18,009"*)

3-nuqtadan chegara chizig'i sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 275 metr, keyin janubiy-sharqiy yo'nalishda 1823 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'29,948", sharqiy uzoqlik 71°17'23,960"*)

4-nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 589 metr masofada dala tuproq yo'liga o'tib, keyin yo'lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 364 metr masofani o'tib, so'ng to'g'i chiziq orqali sharqiy yo'nalishda 23 metr masofada zovurni kesib o'tib, so'ngra zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 199 metr, keyin sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 363 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'39,802", sharqiy uzoqlik 71°18'09,213"*)

5-nuqtadan chegara chizig'i umumiy janubiy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1471 metr, keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1387 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'02,581", sharqiy uzoqlik 71°19'43,818"*)

6-nuqtadan chegara chizig'i zovurni kesib o'tadi va janubiy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 210 metr masofani

o'tib, keyin dala tuproq yo'lini kesib o'tib, so'ng yo'lning shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 118 metr masofada zovurga o'tadi, so'ngra umumiy sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 96 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°49'57,149", sharqiy uzoqlik 71°19'57,916"*)

7-nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 158 metr masofani o'tib, keyin ariqqa tutashadi va umumiy g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 186 metr, so'ng shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 94 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'03,225", sharqiy uzoqlik 71°19'53,464"*)

8-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda 591 metr masofada zovurni kesib o'tib, keyin umumiy sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 630 metr, so'ng shimoliy-sharqiy yo'nalishda 429 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'19,345", sharqiy uzoqlik 71°20'53,442"*)

9-nuqtadan chegara chizig'i sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 75 metr masofani o'tib, keyin to'g'ri chiziq bo'ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 11 metr masofada Oxunboboyev kanaliga o'tib, so'ng umumiy janubiy-sharqiy yo'nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 264 metr, so'ngra shimoliy-sharqiy yo'nalishda 1133 metr masofada dala tuproq yo'liga o'tib, keyin yo'lning g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 90 metr, keyin yo'lning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 38 metr masofada zovurga o'tadi, so'ng sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 999 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'41,900", sharqiy uzoqlik 71°22'26,019"*)

10-nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-g'arbiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 654 metr masofani o'tib, keyin dala tuproq yo'liga o'tadi va yo'lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 177 metr, so'ng sharqiy yo'nalishda 21 metr masofani o'tib, so'ngra ariqqa o'tadi va ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 458 metr masofa zovur bo'yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'14,887", sharqiy uzoqlik 71°22'02,973"*)

11-nuqtadan chegara chizig'i zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy-g'arbiy yo'nalishda 3324 metr masofani o'tib, keyin zovurni kesib o'tadi va shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 941 metr, so'ng zovurni kesib o'tadi va umumiy g'arbiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 565 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'43,711", sharqiy uzoqlik 71°19'37,615"*)

12-nuqtadan chegara chizig'i zovurni kesib o'tadi va dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'lning shimol tomoni bilan janubiy-g'arbiy yo'nalishda 102 metr masofada ariqqa o'tadi, so'ng ariqni kesib o'tadi va janubiy-janubiy-sharqiy

yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 230 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 301 metr masofani oʻtib, keyin zovurga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 491 metr masofada zovurni kesib oʻtib, soʻng zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 569 metr masofada zovurni kesib oʻtib, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan 219 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'21,206"*, *sharqiy uzoqlik 71°18'52,553"*)

13-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 515 metr masofada yoʻlni, ariqni kesib oʻtib, keyin zovurga tutashadi va shimoliy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 709 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'40,784"*, *sharqiy uzoqlik 71°18'26,275"*)

14-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 106 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 270 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 302 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 408 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 334 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'50,895"*, *sharqiy uzoqlik 71°17'58,126"*)

15-nuqtadan chegara chizigʻi zovurni, dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib ariqqa tutashadi va gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 99 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 342 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 213 metr, soʻngra shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 241 metr masofada ariqni, dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 170 metr masofada ariqni kesib oʻtib, soʻng ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 58 metr masofada ekin yeri koʻtarmasiga oʻtadi, soʻngra ekin yeri koʻtarmasi boʻylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 127 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtib, keyin yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 116 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlni kesib oʻtib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 232 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'27,155"*, *sharqiy uzoqlik 71°17'49,519"*)

16-nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 419 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 530 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'36,762"*, *sharqiy uzoqlik 71°17'15,903"*)

17-nuqtadan chegara chizigʻi zovurdan ariqqa oʻtadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan 957 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 458 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda

barcha burilishlarni hisobga olgan holda 416 metr masofada ariqqa o'tadi, so'ngra ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 250 metr masofani o'tib, Sirdaryo daryosi qirg'og'ida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'24,913"*, *sharqiy uzoqlik 71°17'39,967"*)

18-nuqtadan chegara chizig'i umumiy janubiy-sharqiy yo'nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o'ng qirg'og'i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1584 metr, keyin umumiy sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2018 metr, so'ng shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 1613 metr masofani o'tib, daryo qirg'og'ida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'30,349"*, *sharqiy uzoqlik 71°19'07,895"*)

19-nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-sharqiy yo'nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o'ng qirg'og'i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2286 metr masofani o'tib, daryo qirg'og'ida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°53'23,398"*, *sharqiy uzoqlik 71°20'09,582"*)

20 – nuqtadan chegara chizig'i Sirdaryo daryosi qirg'og'idan dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'lning shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 1544 metr masofani o'tib, so'ng quruq chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 89 metr masofani o'tib, Sirdaryo daryosi qirg'og'i bo'yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°53'22,041"*, *sharqiy uzoqlik 71°21'15,505"*).

21 – nuqtadan chegara chizig'i janubiy-sharqiy yo'nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o'ng qirg'og'i bilan 497 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 1510 metr, so'ng yo'lning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 1879 metr, so'ngra yo'lning g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 112 metr masofani o'tib, Sirdaryo daryosi qirg'og'i bo'yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'03,654"*, *sharqiy uzoqlik 71°23'01,829"*).

22 – nuqtadan chegara chizig'i sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o'ng qirg'og'i bilan 301 metrmasofada dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'lning umumiy shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1179 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'59,097"*, *sharqiy uzoqlik 71°23'55,348"*).

23 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lini kesib o'tadi va zovurga tutashadi, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 242 metr masofada ariqqa o'tib, so'ng shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 672 metr, so'ngra janubiy-sharqiy yo'nalishda 258 metr masofani o'tib, keyin dala tuproq yo'lini, ariqni kesib o'tadi va umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 204 metr, so'ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 715 metr masofani o'tib,

so'ngra ariqni kesib o'tadi va ekin yeri chekiga tutashadi, keyin ekin yeri cheki bo'ylab umumiy janubiy yo'nalishda 228 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'55,066"*, *sharqiy uzoqlik 71°25'03,050"*).

24 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 750 metr masofani o'tib, keyin yo'lning g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 322 metr masofani o'tadi, va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo'ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 639 metr, so'ng shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 169 metr, so'ngra shimoliy-sharqiy yo'nalishda 292 metr masofani o'tib, tomorqa chegarasida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'21,792"*, *sharqiy uzoqlik 71°26'07,569"*).

25 – nuqtadan chegara chizig'i tomorqa chegarasi bo'ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 306 metr masofada zovurni kesib o'tib, keyin zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 283 metr masofani o'tib, so'ng janubiy yo'nalishda 282 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, so'ngra tomorqa chegarasi bo'ylab sharqiy yo'nalishda 460 metr masofada zovurni kesib o'tib, keyin janubiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 157 metr masofada ariqqa tutashadi, so'ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 198 metr masofada qishloq ichki yo'lga tutashadi, so'ngra yo'lning shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 1021 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'li bo'yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'02,390"*, *sharqiy uzoqlik 71°27'13,715"*).

26 – nuqtadan chegara chizig'i qishloq ichki yo'lidan tomorqa chegarasiga o'tadi va tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 597 metr masofada qishloq ichki yo'lga tutashadi, keyin yo'lning janub tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 91 metr, so'ng yo'lning g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 169 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, so'ngra tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy yo'nalishda 50 metr masofada qishloq ichki yo'lga tutashadi, keyin qishloq ichki yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 200 metr, so'ng yo'lning shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 202 metr masofada 4R-126 avtomobil yo'lga tutashadi, so'ngra yo'lning g'arb tomoni bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 272 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'36,662"*, *sharqiy uzoqlik 71°27'04,915"*).

27 – nuqtadan chegara chizig'i 4R-126 avtomobil yo'lini kesib o'tadi va dala tuproq yo'lga tutashadi, keyin yo'lning janub tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 760 metr masofada ariqqa tutashadi, so'ng janubiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 348 metr, so'ngra sharqiy yo'nalishda 281 metr masofada ariqni kesib o'tib, keyin ariqning suv oqimi bo'ylab umumiy yo'nalishni o'zgartirmagan holda 533 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, so'ng tomorqa chegarasi bo'ylab sharqiy-

janubiy-sharqiy yoʻnalishda 360 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'17,237"*, *sharqiy uzoqlik 71°28'17,083"*).

28 – nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 538 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 956 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 155 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 23 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi qirgʻogʻida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'10,906"*, *sharqiy uzoqlik 71°29'00,064"*).

29 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2170 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'24,165"*, *sharqiy uzoqlik 71°30'21,233"*).

30 – nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2518 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻi boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'55,210"*, *sharqiy uzoqlik 71°31'55,642"*).

31 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 185 metr masofada dala tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin dala tomorqa chegarasi boʻylab sharqiy yoʻnalishda 915 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 232 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, soʻngra yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 119 metr masofada ariqqa tutashadi, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 406 metr masofani oʻtib, Toʻraqoʻrgʻon, Namangan va Mingbuloq tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, Sirdaryo daryosi qirgʻogʻida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'19,748"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'55,148"*).

B dan D gacha Namanagan tumani yerlari bilan 32 - 38 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

32 – nuqtadan chegara chizigʻi avval sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 419 metr. keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 896 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi, soʻngra yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 342 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 65 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'00,405"*, *sharqiy uzoqlik 71°33'59,813"*).

33 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan ariqqa oʻtadi va janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 150 metr, soʻngra umumiy

sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 537 metr, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 840 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 330 metr, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 549 metr masofada ariqni kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va umumiy sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 197 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'22,010", sharqiy uzoqlik 71°35'31,923"*).

34 – nuqtadan chegara avval ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 402 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 184 metr, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 266 metr, soʻngra sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 134 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 151 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 64 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'11,851", sharqiy uzoqlik 71°35'58,988"*).

35 – nuqtadan chegara chizigʻi dala turoq yoʻlidan ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 109 metr masofani oʻtib, keyin quruq chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 61 metr masofada ariqqa tutatashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy yoʻnalishda 54 metr, soʻng umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 382 metr, soʻngra umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1039 metr, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 66 metr, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 156 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'33,111", sharqiy uzoqlik 71°36'44,970"*).

36 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 595 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 540 metr, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 201 metr masofada zovurga oʻtadi, soʻngra yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 80 metr, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 539 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 830 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 495 metr, soʻngra yoʻlning shimol tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 167 metr masofada Sirdaryo daryosi boʻyida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'14,454", sharqiy uzoqlik 71°38'30,855"*).

37 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 1361 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 70 metr, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 26 metr masofani o‘tib, Namangan, Mingbuloq tumanlari hamda Andijon viloyati chegara chiziqlari kesishgan joy, Oxunboboyev kanali bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'09,597", sharqiy uzoqlik 71°39'29,434"*).

D dan E gacha Andijon viloyati yerlari bilan 38 - 43 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

38-nuqtadan chegara chizig‘i Oxunboboyev kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1303 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 199 metr masofada zovurga o‘tib, so‘ng zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 644 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 625 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 551 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 49 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'08,184", sharqiy uzoqlik 71°37'58,787"*).

39-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 87 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 349 metr, g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 180 metr, shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 179 metr, g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 413 metr, janubiy-sharqiy yo‘nalishda 106 metr, janubiy yo‘nalishda 115 metr, g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 236 metr, g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 436 metr masofada tomorqa chegarasiga o‘tadi va tomorqa chegarasiga bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 628 metr, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 234 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'08,720", sharqiy uzoqlik 71°36'31,570"*).

40-nuqtadan chegara chizig‘i kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1420 metr masofada ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 2359 metr masofada o‘tadi, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 911 metr masofada o‘tadi, keyin janubiy-g‘arbiy yonalishda 4343 metr masofani o‘tib, R-120 avtomobil

yo'li bo'yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°47'48,067", sharqiy uzoqlik 71°32'46,838"*).

41-nuqtadan chegara chizig'i R-120 avtomobil yo'lining shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 1714 metr masofada o'tadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda yo'lining sharq tomoni bilan 3914 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°45'15,911", sharqiy uzoqlik 71°34'53,732"*).

42-nuqtadan chegara chizig'i g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda R-120 avtomobil yo'lini 55 metr masofada kesib o'tadi va qishloq ichki yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy yo'nalishda 76 metr masofada o'tadi, keyin shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 68 metr masofada o'tadi, so'ngra g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 7524 metr masofani o'tib, Mingbuloq tumani, Andijon va Farg'ona viloyatlari chegara chiziqlari kesishgan joy, zovur bo'yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°44'05,313", sharqiy uzoqlik 71°29'43,312"*).

E dan F gacha Farg'ona viloyati yerlari bilan 43– 45 - nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

43-nuqtadan chegara quruq chizig'i orqali janubiy-g'arbiy yo'nalishda 18 metr masofani o'tib, zovur bilan tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomonidan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 796 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°44'20,641", sharqiy uzoqlik 71°29'15,975"*)

44-nuqtadan chegara chizig'i zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomonidan janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 192 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 310 metr, so'ngra janubiy yo'nalishda 447 metr va g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 652 metr, keyin g'arbiy yo'nalishda 784 metr, so'ngra g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 1090 metr, so'ngra janubiy-g'arbiy yo'nalishda 1334 metr, so'ng g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 1931 metr masofadan keyin zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 587 metr, so'ngra g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 1872 metr, so'ng g'arbiy yo'nalishda 1077 metr va shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 53 metr masofani o'tib, Farg'ona viloyati, Mingbuloq, Pop tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, zovur bo'yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°41'54,959", sharqiy uzoqlik 71°23'23,552"*)

F dan A gacha Pop tumani yerlari bilan 45 -1 - nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

45 – nuqtadan chegara chizig'i P-2 zovurining suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni

hisobga olgan holda 945 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 3004 metr, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2653 metr, soʻng umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 6468 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1484 metr masofada Achchiqkoʻl zovurini kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°43'42,042", sharqiy uzoqlik 71°14'24,397"*).

46 – nuqtadan chegara zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4595 metr, keyin umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 4024 metr, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1902 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°43'30,752", sharqiy uzoqlik 71°07'36,952"*).

47 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurni kesib oʻtib, boshqa zovurga oʻtib zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2943 metr masofani oʻtadi, keyin quruq chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 53 metr masofada zovurni kesib oʻtadi, soʻngra zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 996 metr masofada zovurni va dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1010 metr masofada zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 69 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1648 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°45'41,191", sharqiy uzoqlik 71°10'14,111"*).

48 – nuqtadan chegara chizigʻi gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1084 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 250 metr, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda 961 metr masofada ariqni kesib oʻtadi, soʻng umumiy shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1777 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib Qoraqalpoq zovuri boʻyida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°46'45,408", sharqiy uzoqlik 71°08'44,036"*).

49– nuqtadan chegara chizigʻi Qoraqalpoq zovurining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2149 metr masofani oʻtadi, umumiy janubiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1570 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 635 metr masofani oʻtadi, soʻng shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1815

metr masofada zovurni, dala tuproq yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°45'51,191"*, *sharqiy uzoqlik 71°06'02,556"*)

50 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 2841 metr masofada ariqqa tutashadi va g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 56 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1604 metr, so'ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 32 metr masofada dala tuproq yo'liga o'tib, so'ng yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 2874 metr masofada dala tuproq yo'lini, Oxunbobyev kanalini kesib o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°49'19,461"*, *sharqiy uzoqlik 71°08'28,728"*).

51 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 122 metr, keyin yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo'nalishda 30 metr masofani o'tadi, so'ngra dala tuproq yo'lidan zovurga o'tib, zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 1528 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°49'01,016"*, *sharqiy uzoqlik 71°09'34,044"*).

52 – nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 236 metr, keyin g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 144 metr, so'ng shimoliy yo'nalishda 171 metr, so'ngra sharqiy yo'nalishda 150 metr masofani o'tadi, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 370 metr masofada zovurni kesib o'tib, so'ng zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 128 metr masofada qishloq ichki yo'lini kesib o'tadi, so'ngra zovurdan qishloq ichki yo'liga o'tib yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 567 metr, keyin to'g'ri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yo'nalishda 17 metr masofada qishloq ichki yo'lini kesib o'tib, Sirdaryo daryosi qirg'og'ida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°49'44,954"*, *sharqiy uzoqlik 71°09'20,460"*).

53 – nuqtadan chegara chizig'i umumiy sharqiy yo'nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o'ng qirg'og'i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3041 metr, keyin umumiy shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2805 metr masofani o'tib, daryo qirg'og'ida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'01,799"*, *sharqiy uzoqlik 71°11'40,338"*).

54 – nuqtadan chegara chizig'i umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o'ng qirg'og'i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2488 metr, keyin umumiy janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1452 metr masofani o'tib, daryo qirg'og'ida

joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'57,231"*, *sharqiy uzoqlik 71°13'47,684"*).

55 – nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-sharqiy yo'nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o'ng qirg'og'i bilan 2481 metr, keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 2114 metr, so'ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 1662 metr masofani o'tib, Sirdaryo daryosining qirg'og'ida joylashgan boshlang'ich 1-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'16,369"*, *sharqiy uzoqlik 71°16'52,119"*).

Namangan viloyati Namangan tumanining ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash bo'yicha chegara chizig'ining

T A V S I F I

Namangan, To'raqo'rg'on tumanlari va Namangan shahri chegara chiziqlari kesishgan joy, Shimoliy Farg'ona kanali bo'yida joylashgan nuqta boshlang'ich 1-nuqta deb qabul qilindi. (*WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°58'03,552"*, *sharqiy uzoqlik koordinatalari 71°34'03,125"*).

A dan B gacha Namangan shahri yerlari bilan 1-18-nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 – nuqtadan chegara chizig'i Shimoliy Farg'ona kanalidan dala tuproq yo'liga o'tadi va yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 42 metr masofani o'tadi, keyin to'g'ri chegara chizig'i orqali yo'nalishini o'zgartirmagan holda 26 metr masofada Namangan-Andijon temir yo'lini kesib o'tib, so'ng temir yo'lining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda 357 metr masofani o'tib, temir yo'l bo'yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'09,264"*, *sharqiy uzoqlik 71°34'15,776"*).

2 – nuqtadan chegara chizig'i Namangan-Andijon temir yo'lidan ariqqa o'tadi va ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 805 metr masofada 4K-443 avtomobil yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'56,619"*, *sharqiy uzoqlik 71°34'45,855"*).

3 – nuqtadan chegara chizig'i 4K-443 avtomobil yo'lidan ariqqa o'tib ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 715 metr masofada Yangi ariq arig'ini, dala tuproq yo'lini kesib o'tib ariqqa o'tadi, keyin ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 104 metr masofani o'tadi, so'ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 830 metr masofada 4K-441 yo'lini kesib o'tib yo'l bo'yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'34,144"*, *sharqiy uzoqlik 71°35'43,668"*).

4 – nuqtadan chegara chizig'i 4K-441 yo'lining janub tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1518 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-sharqiy yo'nalishda 842 metr masofani o'tib, so'ng yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 304 metr masofani o'tib, so'ngra yo'lining janub tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 31 metr masofani o'tib

4R-112 avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'14,318", sharqiy uzoqlik 71°37'15,869"*).

5 – nuqtadan chegara chizig'i 4R-112 avtomobil yo'lining janub tomoni bilan sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2539 metr masofani o'tib, 4R-115 avtomobil yo'llarini xalqa yo'li bo'yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'56,932", sharqiy uzoqlik 71°39'0,932"*).

6 – nuqtadan chegara chizig'i 4R-115 avtomobil yo'llari xalqasini kesib o'tib, 4R-112 avtomobil yo'lga o'tadi va yo'lining janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2978 metr masofada avtomobil yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'51,833", sharqiy uzoqlik 71°41'06,794"*).

7 – nuqtadan chegara chizig'i 4R-112 avtomobil yo'lining janub tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 1059 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-sharqiy yo'nalishda 1271 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'lga tutashadi va yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 195 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'17,112", sharqiy uzoqlik 71°42'34,644"*).

8 – nuqtadan chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 117 metr masofani o'tadi, keyin yo'lni kesib yo'lni janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 31 metr masofani o'tib, so'ng yo'lining shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda 55 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi, so'ngra devor bo'ylab shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 33 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo'nalishda 69 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'lga o'tadi va yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 282 metr masofani o'tib yo'l bo'yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'14,831", sharqiy uzoqlik 71°42'48,182"*).

9 – nuqtadan chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 84 metr masofani o'tib, keyin yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 24 metr masofani o'tadi, so'ng yo'lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 204 metr, so'ngra yo'lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 219 metr masofani o'tib tomorqa devoriga tutashadi va devor bo'ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 32 metr, so'ngra sharqiy yo'nalishda 133 metr masofada ariqni kesib o'tib qishloq ichki yo'lga tutashadi, keyin yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 61 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'16,305", sharqiy uzoqlik 71°43'13,120"*).

10 – nuqtadan chegara to'g'ri chegara chizig'i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 18 metr masofada qishloq ichki yo'lini kesib o'tadi, keyin yo'lining sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 160 metr, so'ng yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 120 metr masofani o'tadi, so'ngra to'g'ri chegara chizig'i orqali sharqiy yo'nalishda 21 metr masofada qishloq ichki yo'lini, kanalni kesib o'tadi, keyin kanalning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy yo'nalishda 108 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 57 metr, so'ng

sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 264 metr masofani oʻtadi, soʻngra toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 11 metr masofada zovurni kesib oʻtadi, keyin zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 691 metr masofani oʻtib, zovur burilishida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'49,975", sharqiy uzoqlik 71°43'56,070"*).

11 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 617 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 175 metr masofani oʻtadi, soʻng toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 12 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib yoʻl boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'56,682", sharqiy uzoqlik 71°44'25,088"*).

12 – nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 151 metr masofani oʻtadi, keyin toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 20 metr masofada 4R-112 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib Namangansoy soyiga oʻtadi va shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2036 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'53,350", sharqiy uzoqlik 71°43'28,616"*).

13 – nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 50 metr masofada Namangansoy soyini kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 208 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 232 metr masofani oʻtib dala tuproq yoʻliga tutashadi, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 387 metr oʻtib, soʻngra yoʻldan tomorqa devorga oʻtib, devor boʻylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 156 metr masofani oʻtadi, keyin toʻgʻri chegara chizigʻi orqali yoʻnalishni oʻzgartimagan holda 16 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib zovur boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°59'11,421", sharqiy uzoqlik 71°43'49,635"*).

14 – nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 377 metr masofani oʻtib qishloq ichki yoʻliga tutashadi, va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 144 metr, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 133 metr masofani oʻtib ariqqa oʻtadi, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 58 metr, soʻngra umumiy shimoliy yoʻnalishda 203 metr masofani oʻtib, ariq quyilishida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°59'34,060", sharqiy uzoqlik 71°43'39,130"*).

15 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 315 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 113 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°59'46,192", sharqiy uzoqlik 71°43'43,548"*).

16 – nuqtadan chegara chizigʻi ariqdan dala tuproq yoʻliga oʻtib, yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 393 metr masofani oʻtib,

yo'l bo'yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°59'40,184", sharqiy uzoqlik 71°43'58,259"*).

17 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lini kesib o'tib yo'lga o'tadi va yo'lning shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 118 metr masofani o'tib, keyin yo'lning g'arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo'nalishda 106 metr masofani o'tadi, so'ng to'g'ri chegara chizig'i orqali g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 7 metr masofada zovurni kesib o'tadi, so'ngra zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 146 metr masofani o'tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 214 metr masofani o'tib, so'ng sharqiy yo'nalishda 227 metr masofani o'tib, Namangan, Uychi tumanlari va Namangan shahri chegara chiziqlari kesishgan joy zovur bo'yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°59'50,245", sharqiy uzoqlik 71°44'23,667"*).

B dan D gacha Uychi tumani yerlari bilan 18-38-nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

103 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 681 metr masofani o'tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 436 metr masofani o'tib, 104-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}18'55,403''$, sharqiy uzoqlik $70^{\circ}25'29,685''$*).

104 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 778 metr masofani o'tib, keyin shimoliy yo'nalishda 201 metr masofani o'tib, 105-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}19'14,227''$, sharqiy uzoqlik $70^{\circ}25'59,508''$*).

105 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 340 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-sharqiy yo'nalishda 607 metr masofani o'tib, 106-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}19'38,628''$, sharqiy uzoqlik $70^{\circ}26'22,139''$*).

106 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 539 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 358 metr masofani o'tib, 107-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}19'55,890''$, sharqiy uzoqlik $70^{\circ}26'50,375''$*).

107 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab umumiy shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 308 metr masofani o'tib, 108-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}20'05,174''$, sharqiy uzoqlik $70^{\circ}26'52,389''$*).

108 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 595 metr masofani o'tib, keyin shimoliy yo'nalishda 282 metr masofani o'tib, 109-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}20'24,882''$, sharqiy uzoqlik $70^{\circ}27'15,301''$*).

109 – nuqtadan chegra chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 889 metr masofani o'tib, 110-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}20'41,981''$, sharqiy uzoqlik $70^{\circ}27'43,008''$*).

110 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 408 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-sharqiy yo'nalishda 356 metr masofani o'tib, 111-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}20'51,303''$, sharqiy uzoqlik $70^{\circ}28'11,952''$*).

111 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 665 metr masofani o'tib, 112-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}21'11,203''$, sharqiy uzoqlik $70^{\circ}28'21,342''$*).

112 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 282 metr masofani o'tib, keyin

shimoliy-sharqiy yo'nalishda 504 metr masofani o'tib, 113-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°21'32,755", sharqiy uzoqlik 70°28'34,041"*).

113 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab avval shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 577 metr masofani o'tib, keyin umumiy shimoliy yo'nalishda 255 metr masofani o'tib, so'ngra shimoliy-sharqiy yo'nalishda 752 metr masofani o'tib, 114-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°22'14,116", sharqiy uzoqlik 70°28'48,626"*).

114 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1100 metr masofani o'tib, 115-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°22'40,055", sharqiy uzoqlik 70°29'18,056"*).

115 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 979 metr masofani o'tib, 116-nuqtga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°23'09,758", sharqiy uzoqlik 70°29'29,188"*).

116 – nuqtadan chegara chizig'i Chotqol tog' tizmasi bo'ylab avval shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 495 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 565 metr masofani o'tib, so'ngra shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 290 metr masofani o'tib, Qirg'iziston Respublikasi hamda Toshkent, Namangan viloyatlari chegara chiziqlari tutashgan joyda joylashgan boshlang'ich 1-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°23'48,928", sharqiy uzoqlik 70°29'40,384"*).

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanining ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash bo'yicha chegara chizig'ining

T A V S I F I

Chust, Kosonsoy hamda To'raqo'rg'on tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, Kenkulsoy soyi bo'yida joylashgan nuqta boshlang'ich 1-nuqta deb qabul qilindi. (*WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°01'07,529", sharqiy uzoqlik koordinatalari 71°24'25,263"*).

A dan B gacha Kosonsoy tumani yerlari bilan 1-34-nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 – nuqtadan chegara to'g'ri chiziq orqali avval sharqiy yo'nalishda dala tuproq yo'lini kesib o'tib Katta Namangan kanaliga o'tadi va kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 97 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 382 metr masofani o'tib, so'ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 610 metr masofani o'tib, so'ngra janubiy-sharqiy yo'nalishda 310 metr masofani o'tib, kanal bo'yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°00'41,109", sharqiy uzoqlik 71°25'06,241"*).

2 – nuqtadan chegara chizig'i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda Katta Namangan kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 802 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 410 metr masofani o'tib, so'ng to'g'ri chegara chizig'i orqali sharqiy

yoʻnalishda 61 metr masofada Kenkulsoy soyini kesib oʻtib, soy boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}00'59,046''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}25'49,816''$*).

3 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy yoʻnalishda Kenkulsoy soyining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 347 metr masofani oʻtib, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 266 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}01'17,721''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}25'51,425''$*).

4 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda Kenkulsoy soyining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 268 metr masofani oʻtib, keyin umumiy shimoliy yoʻnalishda 686 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}01'46,437''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}25'49,130''$*).

5 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Kenkulsoy soyining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 927 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 212 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}02'18,287''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}25'58,939''$*).

6 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Kenkulsoy soyining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 550 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 249 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 355 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}02'48,893''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}26'17,522''$*).

7 – nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Kenkulsoy soyining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 665 metr masofani oʻtadi, keyin quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 406 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda 241 metr masofani oʻtib, soʻngra umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 354 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}03'26,384''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}26'57,256''$*).

8 – nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 512 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 7 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 982 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}04'05,687''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}27'26,562''$*).

9 – nuqtadan chegara chizigʻi avval dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 264 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy yoʻnalishda 294 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 453 metr masofani oʻtib, soʻngra

yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 147 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°04'03,030"*, *sharqiy uzoqlik 71°28'09,588"*).

10 – nuqtadan chegara chizigʻi avval dala tuproq yoʻlidan Qovushkan arigʻiga oʻtadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 316 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy yoʻnalishda 717 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1210 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°05'12,881"*, *sharqiy uzoqlik 71°28'31,805"*).

11 – nuqtadan chegara chizigʻi avval Qovushkan arigʻidan Gulrux qabiristoni devoriga oʻtadi va devor boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 134 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 128 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 385 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 28 metr masofada Qovushkan arigʻi boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°05'23,034"*, *sharqiy uzoqlik 71°28'39,719"*).

12 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy yoʻnalishda Qovushkan arigʻining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 409 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°05'36,108"*, *sharqiy uzoqlik 71°28'39,915"*).

13 – nuqtadan chegara chizigʻi avval Qovushkan arigʻidan toʻgʻri chiziq orqali dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 115 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda 540 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°05'55,159"*, *sharqiy uzoqlik 71°28'37,771"*).

14 – nuqtadan chegara chizigʻi avval dala tuproq yoʻlining sharq tomoni boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 31 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 60 metr masofani oʻtib, soʻng toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 144 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 106 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'01,713"*, *sharqiy uzoqlik 71°28'40,935"*).

15 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan ariqqa oʻtadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 32 metr masofani oʻtib, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 33 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 66 metr masofada ariqni kesib oʻtib, ariqqa tutashib umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 285 metr masofani oʻtib ariq boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'13,204"*, *sharqiy uzoqlik 71°28'42,446"*).

16 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 334 metr

masofada ariqni kesib o'tadi, keyin g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 51 metr, so'ng shimoliy yo'nalishda 22 metr, so'ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 81 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'21,139"*, *sharqiy uzoqlik 71°28'43,494"*).

17 – nuqtadan chegara chizig'i avval shimoliy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 26 metr masofani o'tib, keyin g'arbiy yo'nalishda 24 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 44 metr masofani o'tib, so'ngra umumiy shimoliy yo'nalishda 282 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'32,124"*, *sharqiy uzoqlik 71°28'43,455"*).

18 – nuqtadan chegara to'g'ri chegara chizig'i orqali shimoliy-sharqiy yo'nalishda 41 metr masofada Shokaptarsoy soyini kesib o'tadi va soyning suv oqimi bo'ylab chap qirg'og'i bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 158 metr masofani o'tib, so'ng umumiy sharqiy yo'nalishda 206 metr masofani o'tib, so'ngra janubiy-sharqiy yo'nalishda 148 metr masofani o'tib, keyin sharqiy yo'nalishda 55 metr masofada 4R-120 avtomobil yo'li ko'prigini kesib o'tib, ko'priq bo'yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'26,197"*, *sharqiy uzoqlik 71°29'04,293"*).

19 – nuqtadan chegara chizig'i 4R-120 avtomobil yo'li ko'prigidan Shokaptarsoy soyiga o'tadi va soyning suv oqimi bo'ylab chap qirg'og'i bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 114 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 126 metr masofani o'tib, so'ng janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 175 metr masofani o'tib, so'ngra janubiy-sharqiy yo'nalishda 168 metr masofani o'tib suv o'tkazgich quvurida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'14,033"*, *sharqiy uzoqlik 71°29'12,654"*).

20 – nuqtadan chegara chizig'i suv o'tkazgich quvuridan Shokaptarsoy soyiga tutashadi va soyning suv oqimi bo'ylab chap qirg'og'i bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 523 metr masofani o'tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 290 metr masofani o'tib, so'ng to'g'ri chegara chizig'i orqali sharqiy yo'nalishda 66 metr masofada Kosonsoy soyini kesib o'tib soy bo'yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°05'54,373"*, *sharqiy uzoqlik 71°29'30,231"*).

21 – nuqtadan chegara chizig'i umumiy shimoliy yo'nalishda Kosonsoy soyining suv oqimiga qarshi o'ng qirg'og'i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1514 metr masofani o'tib, soy bo'yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'41,078"*, *sharqiy uzoqlik 71°29'30,674"*).

22 – nuqtadan chegara chizig'i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda Kosonsoy soyining suv oqimiga qarshi o'ng qirg'og'i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2261 metr masofani o'tib, keyin to'g'ri chiziq orqali janubiy-sharqiy yo'nalishda 18 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib yo'l bo'yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°07'44,057"*, *sharqiy uzoqlik 71°30'09,442"*).

23 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3147 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'06,593"*, *sharqiy uzoqlik 71°29'40,293"*).

24 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda 258 metr, keyin yo'lning g'arb tomoni bilan janubiy yo'nalishda 910 metr, so'ng yo'lning sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda 1070 metr, so'ngra yo'lning g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 163 metr, keyin yo'lning sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 495 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°04'35,680"*, *sharqiy uzoqlik 71°29'30,160"*).

25 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan suv o'tkazgich quvuriga o'tadi va quvur bo'ylab sharqiy yo'nalishda 297 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°04'33,527"*, *sharqiy uzoqlik 71°29'42,538"*).

26 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan ariqqa o'tadi va ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 820 metr masofani o'tib, keyin ariqning chap tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 148 metr masofani o'tib, so'ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 588 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, ariq bo'yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°04'46,084"*, *sharqiy uzoqlik 71°30'31,501"*).

27 – nuqtadan chegara chizig'i avval ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 466 metr masofani o'tib, keyin g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 40 metr masofani o'tib, so'ng g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 15 metr masofani o'tib, so'ngra janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 152 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°04'28,120"*, *sharqiy uzoqlik 71°30'32,050"*).

28 – nuqtadan chegara chizig'i ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 257 metr masofani o'tib, keyin janubiy yo'nalishda 359 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°04'10,858"*, *sharqiy uzoqlik 71°30'40,897"*).

29 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 488 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 278 metr masofani o'tib, so'ng janubiy yo'nalishda 158 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°03'45,998"*, *sharqiy uzoqlik 71°30'50,293"*).

30 – nuqtadan chegara chizig'i ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 435 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 430 metr masofani o'tib, so'ng umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 335 metr

masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°03'09,696", sharqiy uzoqlik 71°30'55,603"*).

31 – nuqtadan chegara chizig'i ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 362 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°02'58,762", sharqiy uzoqlik 71°30'52,069"*).

32 – nuqtadan chegara chizig'i ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 80 metr masofani o'tib, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 454 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°02'45,095", sharqiy uzoqlik 71°31'01,707"*).

33 – nuqtadan chegara chizig'i avval ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy yo'nalishda 158 metr masofani o'tib, "Kushon" sanoat zona yo'liga tutashadi va yo'lining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 302 metr masofada dala tuproq yo'liga o'tadi va yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy janubiy yo'nalishda 88 metr masofani o'tib, To'raqo'rg'on, Kosonsoy tumanlari va Namangan shahri chegara chiziqlari kesishgan joy, yo'l bo'yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°02'31,482", sharqiy uzoqlik 71°31'11,194"*).

B dan D gacha Namangan shahri yerlari bilan 34-49-nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

34 – nuqtadan chegara chizig'i "Kushon" sanoat zona yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy janubiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 369 metr masofani o'tib, keyin yo'lining janub tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 317 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy-sharqiy yo'nalishda 196 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°02'19,035", sharqiy uzoqlik 71°31'28,520"*).

35 – nuqtadan chegara chizig'i "Kushon" sanoat zona yo'lining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 231 metr masofada ariqqa tutashadi va yo'nalishini o'zgartimagan holda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 884 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tadi, so'ngra dala tuproq yo'lining janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo'nalishda 43 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°01'50,350", sharqiy uzoqlik 71°31'59,301"*).

36 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan Katta Namangan kanaliga o'tadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 59 metr masofani o'tib, keyin to'g'ri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 19 metr masofada kanalni kesib o'tadi, so'ngra kanalning suv oqimi bo'ylab g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 381 metr masofani o'tib, so'ng janubiy-g'arbiy yo'nalishda 58 metr masofada 4R-117 avtomobil yo'li ko'prigini kesib o'tib, ko'prik bo'yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°01'43,600", sharqiy uzoqlik 71°31'45,861"*).

37 – nuqtadan chegara chizig'i 4R-117 avtomobil yo'li ko'prigidan dala tuproq yo'liga o'tadi va yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy

yoʻnalishda 359 metr masofani oʻtadi, keyin dala tuproq yoʻlini, bogʻni kesib oʻtib qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 130 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°01'30,000"*, *sharqiy uzoqlik 71°31'38,950"*).

38 – nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 213 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 113 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy yoʻnalishda 62 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 64 metr masofani oʻtib tomorqa devoriga oʻtadi va devor boʻylab janubiy yoʻnalishda 254 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°01'17,962"*, *sharqiy uzoqlik 71°31'54,147"*).

39 – nuqtadan chegara chizigʻi ariqdan qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning janub tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 134 metr masofani oʻtib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 362 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, ariqqa oʻtadi soʻng ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 191 metr masofani oʻtib, soʻngra ariqdan tomorqa devoriga oʻtadi va devor boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 51 metr masofani oʻtib, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 26 metr masofada ariqqa oʻtib, ariqning suv oqimi boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 166 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 42 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi, soʻngra yoʻlning shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 237 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°00'48,351"*, *sharqiy uzoqlik 71°31'56,116"*).

40 – nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlidan tomorqa devoriga oʻtadi va devor boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 29 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 29 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 29 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 139 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 25 metr masofani oʻtib, keyin, sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 35 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy yoʻnalishda 94 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 108 metr masofada ariqni kesib oʻtib dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 91 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib ariqqa oʻtadi keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni boʻylab sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 17 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-sharqiy yoʻnalishda 67 metr masofani oʻtib, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 33 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 120 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 57 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°00'40,973"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'21,792"*).

41 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 50 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 103 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 78 metr masofani o‘tadi, keyin ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 40 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 65 metr masofani o‘tib, so‘ngra to‘g‘ri chiziq orqali ariqni, qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 214 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°00'38,594"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'41,683"*).

42 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 191 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 34 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 48 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 123 metr masofada ariqni, qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 29 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 7 metr masofani o‘tib, so‘ngra to‘g‘ri chiziq orqali dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 63 metr masofani o‘tib, keyin janubiy yo‘nalishda 99 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 41 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 174 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°00'16,953"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'27,105"*).

43 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan 149 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 240 metr masofani o‘tib, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 71 metr masofani o‘tib, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 229 metr masofada 4R-112 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°00'04,692"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'15,327"*).

44 – nuqtadan chegara chizig‘i 4R-112 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 2398 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°59'54,928"*, *sharqiy uzoqlik 71°33'57,053"*).

45 – nuqtadan chegara chizig‘i 4R-112 avtomobil yo‘lidan Ijodkor tashlama arig‘iga o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab avval janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 266 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1341 metr masofani o‘tib, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 396 metr masofada “Namangan xalqaro aeroporti” devoriga tutashadi va devor bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1063 metr masofani o‘tib, devor burilishida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°59'26,760"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'16,456"*).

46 – nuqtadan chegara chizig‘i “Namangan xalqaro aeroport” devori bo‘ylab avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 55 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 151 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 68 metr masofani o‘tib, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 142 metr masofani o‘tib devor burilishida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°59'21,623"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'13,731"*).

47 – nuqtadan chegara chizig‘i “Namangan xalqaro aeroport” devori bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 172 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3634 metr masofada Shimoliy Farg‘ona kanalini kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'38,215"*, *sharqiy uzoqlik 71°34'38,495"*).

48 – nuqtadan chegara chizig‘i Shimoliy Farg‘ona kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 586 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 808 metr masofani o‘tib, Namangan, To‘raqo‘rg‘on tumanlari hamda Namangan shahri chegara chiziqlari kesishgan joy, kanal bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'03,552"*, *sharqiy uzoqlik 71°34'03,125"*).

D dan E gacha Namangan tumani yerlari bilan 49-63-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

49 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 30 metr masofada Shimoliy Farg‘ona kanalini kesib o‘tadi, keyin kanalning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 227 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'59,185"*, *sharqiy uzoqlik 71°33'56,017"*).

50 – nuqtadan chegara chizig‘i avval Shimoliy Farg‘ona kanalidan ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1085 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'20,543"*, *sharqiy uzoqlik 71°33'19,529"*).

51 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 838 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 151 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'12,887"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'41,595"*).

52 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 159 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 196 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1310 metr masofada Namangan-Pop temir yo‘lini kesib o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'29,678"*, *sharqiy uzoqlik 71°33'15,482"*).

53 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 49 metr masofada avtomobil yo‘lini, ariqni kesib o‘tib, keyin ariqning suv oqimi

bo'ylab o'ng tomoni bilan yo'nalishni o'zgartirmagan holda 1309 metr masofani o'tadi, so'ngra janubiy-sharqiy yo'nalishda 281 metr masofada qishloq ichki yo'lini kesib o'tib, Shimoliy Farg'ona kanali bo'yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°56'53,196"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'38,039"*).

54 – nuqtadan chegara chizig'i Shimoliy Farg'ona kanalining suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan umumiy janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1675 metr masofani o'tib, keyin g'arbiy yo'nalishda 549 metr masofada Namangan-Pop temir yo'lini kesib o'tib, so'ng to'g'ri chiziq orqali g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 85 metr masofada Kosonsoy soyini kesib o'tib soy bo'yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°56'27,363"*, *sharqiy uzoqlik 71°31'11,351"*).

55 – nuqtadan chegara chizig'i Kosonsoy soyining suv oqimi bo'ylab o'ng qirg'og'i bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 954 metr masofani o'tib, keyin janubiy-sharqiy yo'nalishda 898 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°55'37,032"*, *sharqiy uzoqlik 71°31'52,225"*).

56 – nuqtadan chegara chizig'i Kosonsoy soyining suv oqimi bo'ylab o'ng qirg'og'i bilan umumiy janubiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 996 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°55'05,605"*, *sharqiy uzoqlik 71°31'50,089"*).

57 – nuqtadan chegara chizig'i Kosonsoy soyining suv oqimi bo'ylab o'ng qirg'og'i bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1740 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°54'14,985"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'14,120"*).

58 – nuqtadan chegara chizig'i Kosonsoy soyining suv oqimi bo'ylab o'ng qirg'og'i bilan umumiy janubiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1431 metr masofani o'tib, 4R-115 avtomobil yo'li ko'prigi bo'yida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°53'31,631"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'15,414"*).

59 – nuqtadan chegara chizig'i 4R-115 avtomobil yo'lidan Kosonsoy soyiga tutashadi va soyning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 769 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 143 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°53'07,077"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'36,034"*).

60 – nuqtadan chegara chizig'i Kosonsoy soyidan dala tuproq yo'liga o'tadi va yo'lining janub tomoni bilan janubiy-g'arbiy yo'nalishda 519 metr masofani o'tib, ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 84 metr masofani o'tib, so'ng janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 146 metr masofada Kosonsoy soyi qirg'og'iga o'tadi, so'ngra soy qirg'og'i bo'ylab umumiy janubiy yo'nalishda 519 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'34,244"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'19,036"*).

61 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 24 metr masofada Kosonsoy soyini kesib o‘tib ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 333 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, so‘ngra to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 326 metr masofada Sirdaryo daryosini kesib o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'19,825"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'40,731"*).

62 – nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab 340 metr masofani o‘tib, To‘raqo‘rg‘on, Namangan va Mingbuloq tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 63-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'19,748"*, *sharqiy uzoqlik 71°32'55,148"*).

E dan F gacha Mingbuloq tumani yerlari bilan 63-94-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

63 – nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosidan ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 406 metr masofada ariqni kesib o‘tadi va dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 119 metr, so‘ng yo‘lni kesib o‘tadi va dala tomorqa chegarasiga tutashadi, so‘ng dala tomorqa chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 232 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 915 metr masofada Sirdaryo daryosiga tutashadi, keyin daryoning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 185 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'55,210"*, *sharqiy uzoqlik 71°31'55,642"*).

64– nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2518 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'24,165"*, *sharqiy uzoqlik 71°30'21,233"*).

65– nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2170 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'10,906"*, *sharqiy uzoqlik 71°29'00,064"*).

66 – nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 23 metr masofada Sirdaryo daryosidan dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 155 metr masofada zovurga tutashadi, so‘ng zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 956 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 538 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'17,237"*, *sharqiy uzoqlik 71°28'17,083"*).

67– nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 360 metr masofada ariqqa tutashadi, so‘ng umumiy g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 533

metr masofada ariqni kesib o'tadi, so'ngra ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 281 metr, keyin shimoliy yo'nalishda 348 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi, so'ng yo'lning janub tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 760 metr masofada 4R-126 avtomobil yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'36,662", sharqiy uzoqlik 71°27'04,915"*).

68 – nuqtadan chegara chizig'i 4R-126 avtomobil yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 272 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi, keyin yo'lning shimol tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 202 metr, so'ng yo'lning g'arb tomoni bilan janubiy yo'nalishda 200 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, so'ngra tomorqa chegarasi bo'ylab janubiy yo'nalishda 50 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi, keyin yo'lning g'arb tomoni bilan janubiy yo'nalishda 169 metr, so'ng yo'lning janub tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 91 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, so'ngra tomorqa chegarasi bo'ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 597 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'li bo'yida joylashgan 69-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'02,390", sharqiy uzoqlik 71°27'13,715"*).

69 – nuqtadan chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining shimol tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 1021 metr masofada ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 198 metr masofada zovurga tutashadi, so'ng zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 157 metr masofani o'tib, so'ngra zovurni kesib o'tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo'ylab g'arbiy yo'nalishda 460 metr masofada zovurga tutashadi, so'ng shimoliy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 282 metr, so'ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 283 metr masofani o'tib, keyin zovurni kesib o'tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, so'ng tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 306 metr masofani o'tib, tomorqa chegarasida joylashgan 70-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'21,792", sharqiy uzoqlik 71°26'07,569"*).

70 – nuqtadan chegara chizig'i tomorqa chegarasi bo'ylab janubiy-g'arbiy yo'nalishda 292 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 169 metr, so'ng g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 639 metr masofada Momoxon kanalini kesib o'tib dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lning g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 322 metr masofani o'tib, so'ngra yo'lning shimol tomoni bilan umumiy g'arbiy yo'nalishda 750 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 71-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'55,066", sharqiy uzoqlik 71°25'03,050"*).

71 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan ekin yeri chekiga o'tadi, keyin ekin yeri cheki bo'ylab umumiy shimoliy yo'nalishda 228 metr masofada ariqni kesib o'tadi va ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 715 metr, so'ng janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 204 metr masofada ariqni, dala tuproq yo'lini kesib o'tib, so'ngra ariqning suv

oqimi bo'ylab chap tomoni bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 258 metr, so'ngra janubiy-g'arbiy yo'nalishda 672 metr masofada zovurga o'tib, keyin zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 242 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 72-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'59,097"*, *sharqiy uzoqlik 71°23'55,348"*).

72 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining umumiy shimol tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1179 metr masofani o'tib, keyin yo'lni kesib o'tadi va Sirdaryo daryosiga tutashadi, so'ng daryoning suv oqimi bo'ylab chap qirg'og'i bilan g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 301 metr masofani o'tib, daryo qirg'og'i bo'yida joylashgan 73-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'03,654"*, *sharqiy uzoqlik 71°23'01,829"*).

73 – nuqtadan chegara chizig'i Sirdaryo daryosi qirg'og'idan dala tuproq yo'liga o'tadi, keyin yo'lning g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 112 metr, so'ng yo'lning shimol tomoni bilan umumiy g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 1879 metr, so'ngra yo'lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 1510 metr masofada Sirdaryo daryosi qirg'og'iga tutashadi va daryoning suv oqimi bo'ylab chap qirg'og'i bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 497 metr masofani o'tib, daryo qirg'og'i bo'yida joylashgan 74-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°53'22,041"*, *sharqiy uzoqlik 71°21'15,505"*).

74 – nuqtadan chegara chizig'i Sirdaryo daryosidan quruq chiziqqa o'tadi va quruq chiziq bo'ylab g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 89 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'lning shimol tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 1544 metr masofani o'tib, Sirdaryo daryosi qirg'og'ida joylashgan 75-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°53'23,398"*, *sharqiy uzoqlik 71°20'09,582"*).

75 – nuqtadan chegara chizig'i Sirdaryo daryosining suv oqimi bo'ylab chap qirg'og'i bilan umumiy janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2286 metr masofani o'tib, daryo qirg'og'ida joylashgan 76-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'30,349"*, *sharqiy uzoqlik 71°19'07,895"*).

76 – nuqtadan chegara chizig'i Sirdaryo daryosining suv oqimi bo'ylab chap qirg'og'i bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1613 metr, keyin umumiy g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2018 metr, so'ng umumiy shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 1584 metr masofani o'tib, daryo qirg'og'ida joylashgan 77-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°52'24,913"*, *sharqiy uzoqlik 71°17'39,967"*).

77 – nuqtadan chegara chizig'i Sirdaryo daryosi qirg'og'idan ariqqa o'tadi, keyin umumiy g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 250 metr masofada dala tuproq yo'liga o'tadi, so'ng dala tuproq yo'lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo'nalishda 416 metr masofada yo'lni kesib o'tadi va ariqqa tutashadi, so'ng g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 458 metr, so'ngra janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 957 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 78-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'36,762"*, *sharqiy uzoqlik 71°17'15,903"*).

78 – nuqtadan chegara chizig'i zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 530 metr, keyin janubiy-sharqiy yo'nalishda 419 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 79-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'27,155", sharqiy uzoqlik 71°17'49,519"*).

79 – nuqtadan chegara chizig'i zovurni kesib o'tib, keyin ariqqa o'tadi va janubiy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 232 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, so'ng yo'lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 116 metr masofada ekin yeri ko'tarmasiga o'tib, so'ngra ekin yeri ko'tarmasi bo'ylab janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 127 metr masofada ariqqa o'tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 58 metr masofada ariqni kesib o'tib, so'ng ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 170 metr masofada dala tuproq yo'lini, ariqni kesib o'tib, so'ngra ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy yo'nalishda 241 metr, keyin ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 213 metr, so'ng janubiy yo'nalishda 342 metr, so'ngra sharqiy yo'nalishda 99 metr masofada dala tuproq yo'lini, zovurni kesib o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 80-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'50,895", sharqiy uzoqlik 71°17'58,126"*).

80 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 334 metr, keyin janubiy yo'nalishda 408 metr masofada yo'lni kesib o'tib, so'ng zovurga o'tadi va sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 302 metr, so'ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 270 metr, keyin sharqiy yo'nalishda 106 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 81-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'40,784", sharqiy uzoqlik 71°18'26,275"*).

81 – nuqtadan chegara chizig'i zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan janubiy yo'nalishda 709 metr masofada dala tuproq yo'liga o'tadi, keyin yo'lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 515 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 82-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'21,206", sharqiy uzoqlik 71°18'52,553"*).

82 – nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan zovurga o'tadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 219 metr masofada zovurni kesib o'tib, so'ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 569 metr masofada zovurni kesib o'tib, so'ngra sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 491 metr masofada dala tuproq yo'liga o'tadi, keyin yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 301 metr masofada ariqqa o'tadi, so'ng ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 230 metr masofada ariqni kesib o'tadi va dala tuproq yo'liga tutashadi, so'ngra yo'lining shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda 102 metr masofada yo'lni, zovurni kesib o'tib, zovur bo'yida joylashgan 83-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'43,711", sharqiy uzoqlik 71°19'37,615"*).

83 – nuqtadan chegara chizig'i zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan umumiy sharqiy yo'nalishda 565 metr masofada zovurni kesib o'tib, keyin zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda

941 metr masofada zovurni kesib o'tib, so'ng shimoliy-sharqiy yo'nalishda 3324 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 84-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°51'14,887", sharqiy uzoqlik 71°22'02,973"*).

84 – nuqtadan chegara chizig'i zovur bo'yidan ariqqa o'tadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 458 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi, so'ng yo'lning sharq tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 21 metr, so'ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 177 metr masofada zovuga o'tadi, keyin zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 654 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 85-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'41,900", sharqiy uzoqlik 71°22'26,019"*).

35-nuqtadan chegara chizig'i quruq soyning o'ng qirg'og'i bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 258 metr masofani o'tib, so'ng soyni kesib o'tadi va soyning chap qirg'og'i bilan g'arbiy yo'nalishda 63 metr, so'ngra shimoliy yo'nalishda 77 metr masofani o'tib, keyin to'g'ri chiziq orqali g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 53 metr masofani o'tib, quruq soy bo'yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}04'59,784''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}44'50,696''$*).

36-nuqtadan chegara chizig'i quruq soyning chap qirg'og'i bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 167 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lining g'arb tomoni bilan bilan shimoliy yo'nalishda 114 metr masofani o'tib, so'ng yo'lining janub tomoni bilan umumiy g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 62 metr masofani o'tib, so'ngra dala tuproq yo'lini kesib o'tib, yo'lga tutashadi va yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 85 metr masofani o'tadi, so'ngra yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 69 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}05'12,360''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}44'53,636''$*).

37-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lini kesib o'tib, suv quvuriga tutashadi va suv quvuri bo'ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 312 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, keyin yo'lining shimol tomoni bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 73 metr masofada dala tomorqa chegarasiga tutashadi, so'ng dala tomorqa chegarasi bo'ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 446 metr masofada suv quvuriga o'tadi va quvur bo'ylab umumiy shimoliy yo'nalishda 68 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi, so'ngra yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 45 metr, keyin yo'lining shimol tomoni bilan g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 16 metr masofada dala tomorqa chegarasiga tutashadi, so'ng dala tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-

g'arbiy yo'nalishda 60 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°05'35,354"*, *sharqiy uzoqlik 71°45'07,990"*).

38-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda 161 metr masofani o'tib, keyin yo'lni kesib o'tib, ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 227 metr, shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 93 metr, shimoliy yo'nalishda 80 metr, shimoliy-sharqiy yo'nalishda 34 metr masofada quruq soyni kesib o'tadi va quruq soyning o'ng qirg'og'i bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 271 metr masofani o'tadi, quruq soy bo'yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°05'58,907"*, *sharqiy uzoqlik 71°45'11,574"*).

39-nuqtadan chegara chizig'i quruq soyning o'ng qirg'og'i bilan g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 219 metr masofani o'tib, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 633 metr masofada dala tomorqa chegarasiga tutashadi, so'ng dala tomorqa chegarasi bo'ylab g'arbiy yo'nalishda 102 metr, keyin umumiy shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 79 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'13,507"*, *sharqiy uzoqlik 71°44'49,398"*).

40-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan ariqqa o'tadi va janubiy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 142 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 68 metr masofani o'tib, so'ng umumiy g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 148 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'lining sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda 45 metr masofani o'tadi, so'ng yo'lni kesib o'tadi va ariqqa tutashadi, so'ngra ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 108 metr masofani o'tib, quruq soyga o'tadi va quruq soyning o'ng qirg'og'i bilan shimoliy yo'nalishda 557 metr masofani o'tib, quruq soy qirg'og'ida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'28,664"*, *sharqiy uzoqlik 71°44'38,590"*).

41-nuqtadan chegara chizig'i quruq soydan dala tomorqa chegarasiga o'tadi va dala tomorqa chegarasi bo'ylab g'arbiy yo'nalishda 274 metr masofada dala tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin yo'lining sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda 233 metr, dala tuproq yo'lining janub tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 355 metr masofani o'tib, keyin janubiy-g'arbiy yo'nalishda 352 metr masofani o'tib, so'ng yo'lni kesib o'tadi va yo'lining janub tomoni bilan umumiy g'arbiy yo'nalishda 626 metr masofada dala tomorqa chegarasiga tutashadi, so'ngra dala tomorqa chegarasi bo'ylab umumiy g'arbiy yo'nalishda 121 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'11,991"*, *sharqiy uzoqlik 71°43'29,303"*).

42-nuqtadan chegara chizig'i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 164 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tadi va yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan

holda 528 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°06'32,975"*, *sharqiy uzoqlik 71°43'32,892"*).

43-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 1631 metr masofani o'tadi keyin to'g'ri chiziq orqali avtomobil yo'lini kesib o'tadi va yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 212 metr masofada so'ng yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 119 metr masofani o'tadi, so'ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 139 metr masofani o'tib, so'ng avtomobil yo'lidan dala tuproq yo'lga o'tib, keyin yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 54 metr masofada yo'lni kesib o'tib, quruq soyga tutashadi va quruq soyning chap qirg'og'i bilan sharqiy yo'nalishda 157 metr masofani o'tib, quruq soy bo'yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°07'31,292"*, *sharqiy uzoqlik 71°44'12,320"*).

44-nuqtadan chegara chizig'i quruq soyning o'ng qirg'og'i bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 958 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'lga tutashadi, so'ng yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo'nalishda 1028 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°08'32,487"*, *sharqiy uzoqlik 71°44'05,479"*).

45 -nuqtadan chegara chizig'i avval dala tuproq yo'lida quruq soyga o'tadi va quruq soyning o'ng qirg'og'i bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1533 metr masofada ariqqa tutashib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 166 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 340 metr masofani o'tadi, so'ng ariqdan avtomobil yo'lga o'tib, yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 448 metr masofani o'tib, avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°09'32,601"*, *sharqiy uzoqlik 71°44'12,565"*).

46 -nuqtadan chegara chizig'i R-118 avtomobil yo'lini kesib o'tib, qishloq ichki yo'lga tutashadi va yo'lining shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda 444 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 125 metr masofani o'tadi, so'ng sharqiy yo'nalishda 114 metr masofani o'tib, so'ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 159 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°09'44,595"*, *sharqiy uzoqlik 71°44'37,238"*).

47 -nuqtadan chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 321 metr masofani o'tib, ariqqa o'tadi va shimoliy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 674 metr masofani o'tib, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 856 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°10'40,113"*, *sharqiy uzoqlik 71°44'53,984"*).

48 -nuqtadan chegara chizig'i sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 210 metr masofada avtomobil yo'lga tutashadi va yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 295 metr masofani o'tib, avtomobil yo'lga tutashadi va avtomobil yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 412 metr

masofada yo'lni kesib o'tib, ariqqa tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 523 metr masofada quruq soy dambasiga tutashib, so'ng dambaning o'ng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 176 metr masofada dala tuproq yo'lni kesib o'tib, so'ngra yo'lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 73 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}10'48,343''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}45'46,785''$*).

49-nuqtadan chegara chizig'i avval dala tuproq yo'lidan ariqqa o'tadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 520 metr masofada dala tuproq yo'lni kesib o'tib, keyin yo'lning sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda 597 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}10'24,121''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}46'07,103''$*).

50-nuqtadan chegara chizig'i avva dala tuproq yo'lidan ariqqa o'tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 673 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 325 metr masofani o'tadi, so'ng sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 426 metr masofani o'tadi, so'ngra umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 141 metr masofada dala tuproq yo'lga tutashadi va yo'lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 89 metr masofada yo'lni kesib o'tib, beton ariq bo'yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}10'03,406''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}46'57,413''$*).

51-nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 820 metr masofada dala tuproq yo'lni kesib o'tib, avtomobil yo'lga tutashadi va yo'lning g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 283 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}10'38,272''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}47'07,161''$*).

52-nuqtadan chegara chizig'i avval avtomobil yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 466 metr masofani o'tib, so'ng to'g'ri chziq orqali sharqiy yo'nalishda 25 metr masofada avtomobil yo'lini va dala tuproq yo'linin kesib o'tib, so'ng dala tuproq yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 127 metr masofada ariqqa tutashadi va sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 200 metr masofada ariqni kesib o'tib, ariq bo'yida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}10'58,017''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}47'13,314''$*).

53-nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 802 metr masofani o'tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 664 metr masofani o'tib, Qoramurt suv ombori bo'yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}11'30,537''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}47'49,672''$*).

54 -nuqtadan chegara chizig'i Qoramurt suv omborining chap qirg'og'i bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 574 metr masofani o'tib, keyin umumiy shimoliy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 384 metr masofada qishloq ichki yo'lni kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}11'51,892''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'00,744''$*).

55 -nuqtadan chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 22 metr masofada ariqqa tutashadi, keyin umumiy shimoliy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 607 metr masofani o'tib, so'ngra shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 74 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}12'12,401''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'03,464''$*).

56 -nuqtadan chegara chizig'i avval ariqni kesib o'tib, ariqqa tutashadi va janubiy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 25 metr masofani o'tib, keyin g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 164 metr masofada ariqni kesib o'tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 234 metr masofani o'tib, so'ng umumiy shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 152 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}12'26,194''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}47'54,687''$*).

57 -nuqtadan chegara to'g'ri chegara chizig'i orqali shimoliy-sharqiy yo'nalishda 53 metr masofada ariqni kesib o'tib, ariqqa tutashadi sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 575 metr masofani o'tadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 298 metr masofani o'tadi, so'ng umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 84 metr masofada avtomobil yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}12'16,452''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'24,478''$*).

58 -nuqtadan chegara chizig'i avtomobil yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 159 metr masofada qishloq ichki yo'liga o'tadi va yo'lining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda 30 metr masofani o'tib, tomorqa devoriga tutashadi va devor bo'ylab janubiy-sharqiy yo'nalishda 60 metr masofani o'tib, so'ng tomorqa devori va tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 471 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 241 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}12'39,846''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'35,746''$*).

59 -nuqtadan chegara to'g'ri chiziq orqali qishloq ichki yo'lini kesib o'tib, tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo'ylab sharqiy yo'nalishda 39 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 347 metr masofani o'tib, so'ng umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 463 metr masofani o'tib, avtomobil yo'liga o'tadi va yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 405 metr masofani o'tib, avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}12'46,813''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}49'01,678''$*).

60 -nuqtadan chegara chizig'i avtomobil yo'lida ariqqa o'tadi va umumiy g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 196 metr masofani o'tib, keyin umumiy shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 970 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik $41^{\circ}13'17,209''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'49,803''$*).

61 -nuqtadan chegara chizig'i sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 48 metr masofani o'tadi, keyin shimoliy yo'nalishda 311 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy-sharqiy yo'nalishda 125 metr masofani o'tib, so'ngra umumiy shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 855 metr masofani o'tib, ariq burilishida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}13'55,927''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'57,154''$).*

62 -nuqtadan chegara chizig'i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 289 metr masofani o'tadi, keyin sharqiy yo'nalishda 27 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy yo'nalishda 210 metr masofani o'tib, so'ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 32 metr masofani o'tadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 142 metr masofani o'tib, so'ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 179 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 63-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}14'07,418''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}49'12,927''$).*

63-nuqtadan chegara chizig'i ariqni kesib o'tib, tomorqa devoriga tutashadi va devor bo'ylab umumiy shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 96 metr masofani o'tadi, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 39 metr masofani o'tib, so'ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 28 metr masofani o'tib, so'ngra quruq chiziq orqali sharqiy yo'nalishda 18 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'lning g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 779 metr masofada yo'lni kesib o'tib, tomorqa devoriga tutashib, so'ngra tomorqa devori bo'ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 50 metr masofani o'tib, keyin shimoliy yo'nalishda 78 metr masofani o'tib, so'ngra sharqiy yo'nalishda 26 metr masofani o'tib, tomorqa devorida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}14'38,495''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}49'16,248''$).*

64 -nuqtadan chegara chizig'i avval tomorqa devoridan ariqqa o'tadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 195 metr masofani o'tadi, keyin umumiy shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 201 metr masofani o'tib, so'ng janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 44 metr masofani o'tib, so'ngra g'arbiy yo'nalishda 26 metr masofani o'tadi, keyin shimoliy yo'nalishda 173 metr masofani o'tib, so'ng umumiy g'arbiy yo'nalishda 41 metr masofani o'tib, so'ngra shimoliy yo'nalishda 60 metr masofani o'tib, ariq burilishida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}14'56,094''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}49'09,808''$).*

65 -nuqtadan chegara chizig'i umumiy janubiy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 37 metr masofani o'tadi, keyin janubiy yo'nalishda 62 metr masofani o'tib, so'ng g'arbiy yo'nalishda 34 metr masofani o'tib, so'ngra umumiy shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 333 metr masofani o'tib, keyin g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 46 metr masofani o'tib, so'ng janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 94 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lning sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda 21 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}15'00,159''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}49'01,232''$).*

66 -nuqtadan chegara chizig'i avval dala tuproq yo'lini kesib o'tib, ariqqa tutashadi va umumiy shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 183 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'lning sharq tomoni bilan janubiy-g'arbiy yo'nalishda 37 metr masofani o'tadi, keyin yo'lining janub tomoni bilan g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 82 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'li bo'yida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}15'05,349''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'52,802''$).*

67 -nuqtadan chegara chizig'i avval qishloq ichki yo'lidan ariqqa o'tadi va umumiy g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 87 metr masofani o'tadi, keyin janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 77 metr masofani o'tib, so'ng janubiy-g'arbiy yo'nalishda 35 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'lning sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda 10 metr masofada yo'lni kesib o'tib, so'ng yo'lning janub tomoni bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 94 metr masofani o'tib, so'ngra yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 46 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'li bo'yida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}15'06,760''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'45,071''$).*

68 -nuqtadan chegara chizig'i avval qishloq ichki yo'lidan ariqqa o'tadi va umumiy g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 141 metr masofani o'tadi, keyin g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 145 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 40 metr masofani o'tib, keyin g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 80 metr masofada ariqni kesib o'tib, so'ng shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 107 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lning shimol tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 69 metr masofada yo'lni kesib o'tib, so'ngra yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy yo'nalishda 249 metr masofani o'tib, yo'l burilishida joylashgan 69-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}15'03,558''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'22,807''$).*

69 -nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining shimol tomoni bilan g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1560 metr masofani o'tib, R-113 avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 70-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}15'24,929''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}47'28,123''$).*

70 -nuqtadan chegara chizig'i R-113 avtomobil yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 261 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 613 metr masofada yo'lni kesib o'tib, ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 549 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy-sharqiy yo'nalishda 121 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lning janub tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 86 metr masofani o'tadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 78 metr masofani o'tib, so'ngra yo'lning shimol tomoni bilan yo'nalishni o'zgartirmagan holda 98 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 71-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}15'48,292''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'17,709''$).*

71 -nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lini kesib o'tadi va yo'lning sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 247 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 225 metr masofada Bekobodsoy soyiga tutashadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda soyning suv oqimiga qarshi o'ng qig'og'i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 117 metr masofani o'tadi, so'ng to'g'ri chegara chizig'i orqali shimoliy-sharqiy yo'nalishda 70 metr masofada Bekobodsoy soyini kesib o'tib, Bekobodsoy soyi bo'yida joylashgan 72-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik $41^{\circ}15'43,020''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'36,040''$).*

72 -nuqtadan chegara chizig'i avval Bekobodsoy soyidan ariqqa o'tadi va umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 885 metr masofani o'tadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 188 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 73-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik $41^{\circ}15'25,726''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}49'10,795''$).*

73 -nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 38 metr masofani o'tib, keyin sharqiy yo'nalishda 33 metr masofani o'tadi, so'ng janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 104 metr masofani o'tib, keyin to'g'ri chiziq orqali sharqiy yo'nalishda 39 metr masofada R-119 avtomobil yo'lini kesib o'tib, so'ngra yo'lning sharq tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 278 metr masofani o'tib, avtmobil yo'li bo'yida joylashgan 74-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik $41^{\circ}15'32,324''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}49'15,748''$).*

74 -nuqtadan chegara chizig'i avval R-119 avtomobil yo'lidan ariqqa o'tadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 167 metr masofani o'tadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 306 metr masofani o'tadi, so'ng umumiy sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 427 metr masofani o'tadi, so'ngra janubiy yo'nalishda 58 metr masofani o'tib, ariq burilishida joylashgan 75-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik $41^{\circ}15'26,062''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}49'43,880''$).*

75 -nuqtadan chegara chizig'i sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 55 metr masofani o'tadi, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 278 metr masofani o'tadi, so'ng umumiy shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 352 metr masofani o'tib, ariq burilishida joylashgan 76-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik $41^{\circ}15'42,757''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}49'52,053''$).*

76 -nuqtadan chegara chizig'i g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 202 metr masofani o'tadi, keyin shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 129 metr masofani o'tadi, keyin g'arbiy yo'nalishda 47 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy yo'nalishda 55 metr masofani o'tib, so'ngra g'arbiy yo'nalishda 73 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lning sharq tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 33 metr masofada ariqqa o'tadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 60 metr masofani o'tib, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 440 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy-

g'arbiy yo'nalishda 148 metr masofani o'tib, keyin janubiy-g'arbiy yo'nalishda 82 metr masofani o'tib, so'ng g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 70 metr masofani o'tib, so'ngra shimoliy yo'nalishda 80 metr masofani o'tib, so'ngra umumiy g'arbiy yo'nalishda 93 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'li bo'yida joylashgan 77-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°16'06,501", sharqiy uzoqlik 71°49'23,763")*.

77 -nuqtadan chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 110 metr masofani o'tib, keyin shimoliy yo'nalishda 160 metr masofani o'tib, so'ng yo'lining shimol tomoni bilan g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 119 metr masofada R-119 avtomobil yo'liga tutashadi va yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 723 metr masofani o'tib, R-119 avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 78-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°16'39,449", sharqiy uzoqlik 71°49'15,567")*.

78 -nuqtadan chegara chizig'i avval R-119 avtomobil yo'lidan ariqqa o'tadi va sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 84 metr masofani o'tadi, keyin shimoliy yo'nalishda 87 metr masofani o'tadi, so'ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 68 metr masofani o'tadi, so'ngra shimoliy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 136 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 79-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°16'46,804", sharqiy uzoqlik 71°49'22,527")*.

79 -nuqtadan chegara chizig'i umumiy sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 177 metr masofada qishloq ichki yo'liga o'tib, keyin yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 84 metr masofada yo'lni kesib o'tib, tomorqa devoriga tutashadi, so'ng devor bo'ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 37 metr masofani o'tib, so'ngra janubiy-sharqiy yo'nalishda 112 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 80-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°16'42,292", sharqiy uzoqlik 71°49'36,039")*.

80 -nuqtadan chegara chizig'i avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 45 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 13 metr masofani o'tadi, keyin ariqqa tutashib umumiy shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 401 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy yo'nalishda 154 metr masofada ariqni kesib o'tadi, so'ngra shimoliy-g'arbiy yo'nalishda chap tomoni bilan 337 metr masofada R-119 avtomobil yo'liga tutashadi va yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy-g'arbiy yo'nalishda 55 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 81-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°17'02,464", sharqiy uzoqlik 71°49'41,926")*.

81 -nuqtadan chegara chizig'i avval R-119 avtomobil yo'lini kesib o'tib, maktab devoriga tutashadi va devor bo'ylab shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 191 metr masofani o'tadi, keyin g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 38 metr masofada qishloq ichki yo'li bo'yida joylashgan 82-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°17'08,287", sharqiy uzoqlik 71°49'36,919")*.

82 -nuqtadan chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 356 metr masofani o'tib, ariqqa o'tib, so'ng shimoliy

yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 165 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 7 metr masofada ariqni kesib oʻtadi va umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1047 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 83-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}17'50,726''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}49'09,492''$).*

83 -nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 82 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 63 metr masofada ariqni kesib oʻtib, soʻng umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 760 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 375 metr masofada ariqni kesib oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 84-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}18'02,304''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}48'44,277''$).*

84 -nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 190 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi, keyin umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 781 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 29 metr masofani oʻtib, soʻngra qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 133 metr masofani oʻtib, soʻngra yoʻlni kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 125 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 33 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 74 metr masofada beton ariqni kesib oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 85-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}18'07,298''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}47'59,000''$).*

85 -nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 152 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 100 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, beton ariqqa tutashadi va gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 207 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1005 metr masofani oʻtadi, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 181 metr masofani oʻtib, beton ariq boʻyida joylashgan 86-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}18'43,578''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}47'21,198''$).*

86 -nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy yoʻnalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1666 metr masofani oʻtadi, keyin oʻng tomoni bilan yoʻnalishi oʻzgarmagan holda 526 metr masofada 4R-120 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 87-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}19'53,809''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}47'14,869''$).*

87 -nuqtadan chegara chizigʻi 4R-120 avtomobil yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 161 metr masofani oʻtib, 4R-120

avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 88-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°19'55,967", sharqiy uzoqlik 71°47'21,177")*.

88 –nuqtadan chegara chizig'i 4R-120 avtomobil yo'lini kesib o'tib, dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 2000 metr masofada yo'lni kesib o'tadi va ariqqa tutashadi, keyin umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 570 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 89-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20'46,678", sharqiy uzoqlik 71°46'43,693")*.

89 –nuqtadan chegara chizig'i avval ariqdan dala tuproq yo'liga o'tadi va yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 2596 metr masofani o'tadi, keyin yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1028 metr masofada yo'lni kesib o'tib, Karan kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 278 metr masofani o'tib, kanal bo'yida joylashgan 90-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°22'05,363", sharqiy uzoqlik 71°46'24,598")*.

90 –nuqtadan chegara chizig'i Karan kanalini kesib o'tib, qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 652 metr masofada beton ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 1002 metr masofada dala tuproq yo'lini kesib o'tib, so'ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 575 metr masofani o'tib, beton ariq bo'yida joylashgan 91-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°22'42,533", sharqiy uzoqlik 71°46'56,540")*.

91 –nuqtadan chegara chizig'i beton ariqdan ariqqa o'tadi va shimoliy-sharqiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 180 metr masofani o'tadi, keyin shimoliy yo'nalishda 548 metr masofani o'tadi, so'ng shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 716 metr masofani o'tib, ariq burilishida joylashgan 92-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°23'25,385", sharqiy uzoqlik 71°46'49,196")*.

92 –nuqtadan chegara chizig'i g'arbiy yo'nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o'ng tomoni bilan 308 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 146 metr masofada avtomobil yo'lini kesib o'tadi va avtomobil yo'lining shimol tomoni bilan g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 171 metr masofani o'tib, avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 93-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°23'27,234", sharqiy uzoqlik 71°46'27,635")*.

93 –nuqtadan chegara chizig'i avtomobil yo'lidan qishloq ichki yo'liga o'tadi va yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo'nalishda 271 metr masofani o'tadi, keyin shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 149 metr masofani o'tib, so'ng umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 851 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'li bo'yida joylashgan 94-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°23'59,129", sharqiy uzoqlik 71°46'44,547")*.

94 –nuqtadan chegara chizig'i qishloq ichki yo'lidan dala tuproq yo'liga o'tadi va yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 142 metr

masofani o'tadi, keyin shimoliy yo'nalishda 435 metr masofada soyga tutashadi va shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qorg'og'i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1139 metr masofani o'tib, soy bo'yida joylashgan 95-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°24'47,249", sharqiy uzoqlik 71°46'22,895"*).

95 –nuqtadan chegara chizig'i quruq chiziq orqali g'arbiy yo'nalishda 46 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 599 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 96-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°24'28,797", sharqiy uzoqlik 71°46'13,131"*).

96 –nuqtadan chegara chizig'i ariqdan dala tuproq yo'liga o'tadi va yo'lining janub tomoni bilan umumiy g'arbiy yo'nalishda 250 metr masofani o'tadi, keyin umumiy shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 743 metr masofada quruq soyni kesib o'tib, so'ngra yo'lining janub tomoni bilan yo'nalishini o'zgartirmagan holda 81 metr masofani o'tib, Qirg'iziston Respublikasi, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, quruq soy bo'yida joylashgan 97-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°24'51,480", sharqiy uzoqlik 71°45'43,137"*).

E dan A gacha Qirg'iziston Respublikasi yerlari bilan 97 – 1 nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

97-nuqtadan 1-nuqtagacha chegara chizig'i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha mavjud chegara chizig'i bo'yicha olindi boshlang'ich 1-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 41°09'01,240", sharqiy uzoqlik 71°56'13,211"*)

Namangan viloyati Chust tumanining ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash bo'yicha chegara chizig'ining

T A V S I F I

Qirg'iziston Respublikasi, Chust va Pop tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo'lining g'arb tomonida joylashgan nuqta boshlang'ich 1 - nuqta deb qabul qilindi (*WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°07'23,919", sharqiy uzoqlik koordinatalari 70°56'34,102"*).

A dan B gacha Qirg'iziston Respublikasi yerlari bilan 1-2-nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan 2-nuqtagacha chegara chizig'i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha mavjud chegara chizig'i bo'yicha olindi boshlang'ich 2-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik 41°06'31,791", sharqiy uzoqlik 71°23'51,303"*).

B dan D gacha Kosonsoy tumani yerlari bilan 2-20-nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan chegara chizig'i avtomobil yo'lini va beton ariqni kesib o'tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy

yo'nalishda 311 metr masofani o'tib, keyin janubiy yo'nalishda 62 metr masofani o'tib, so'ng janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 133 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°06'18,548", sharqiy uzoqlik 71°24'03,174")*.

3-nuqtadan chegara to'g'ri chiziq orqali dala tuproq yo'lini kesib o'tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo'ylab janubiy yo'nalishda 115 metr masofani o'tib, keyin janubiy-sharqiy yo'nalishda 79 metr masofani o'tib, so'ng janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 170 metr masofani o'tib, so'ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 206 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°06'01,080", sharqiy uzoqlik 71°24'05,180")*.

4-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining g'arb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 298 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 156 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05'47,508", sharqiy uzoqlik 71°24'04,592")*.

5-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan ariqqa o'tadi va ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 290 metr masofani o'tib, janubiy yo'nalishda 150 metr masofada ariqni kesib o'tib, ariq bo'yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05'33,780", sharqiy uzoqlik 71°24'00,909")*.

6-nuqtadan chegara chizig'i ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 127 metr masofani o'tib, keyin janubiy yo'nalishda 84 metr masofani o'tib, so'ng to'g'ri chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 24 metr masofada Chorbuloqsoy soyini kesib o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05'26,892", sharqiy uzoqlik 71°24'00,678")*.

7-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 611 metr masofani o'tib, Chorbuloqsoy soyiga tutashadi va soyning suv oqimi bo'ylab chap qirg'og'i bilan umumiy janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 855 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04'46,569", sharqiy uzoqlik 71°23'34,207")*.

8-nuqtadan chegara to'g'ri chiziq orqali g'arbiy yo'nalishda 31 metr masofada Chorbuloqsoy soyini kesib o'tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 467 metr masofani o'tib, keyin janubiy yo'nalishda 306 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04'24,308", sharqiy uzoqlik 71°23'23,631")*.

9-nuqtadan chegara chizig'i ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 562 metr masofani o'tib, keyin g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 56 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04'09,931", sharqiy uzoqlik 71°23'35,888")*.

10-nuqtadan chegara chizig'i ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 659 metr masofani o'tib, Chorbuloqsoy soyining o'ng qirg'og'ida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}03'50,196''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}23'45,908''$).*

11-nuqtadan chegara chizig'i Chorbuloqsoy soyining suv oqimi bo'ylab o'ng qirg'og'i bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 323 metr masofani o'tib, soyning o'ng qirg'og'ida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}03'41,587''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}23'48,940''$).*

12-nuqtadan chegara chizig'i Chorbuloqsoy soyining suv oqimi bo'ylab o'ng qirg'og'i bilan umumiy janubiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 321 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}03'32,500''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}23'50,339''$).*

13-nuqtadan chegara chizig'i Chorbuloqsoy soyining suv oqimi bo'ylab o'ng qirg'og'i bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 591 metr masofani o'tib, soy qirg'og'ida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}03'18,055''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'05,876''$).*

14-nuqtadan chegara chizig'i Chorbuloqsoy soyining suv oqimi bo'ylab o'ng qirg'og'i bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 283 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}03'10,741''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'08,976''$).*

15-nuqtadan chegara chizig'i zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 225 metr masofani o'tib, keyin sharqiy yo'nalishda 208 metr masofani o'tib, so'ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 410 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}03'01,431''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'41,504''$).*

16-nuqtadan chegara to'g'ri chiziq orqali zovurni kesib o'tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo'ylab, chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 154 metr masofani o'tib, keyin umumiy janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 780 metr masofani o'tib, ariq bo'yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}02'34,290''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'30,580''$).*

17-nuqtadan chegara chizig'i ariqning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 113 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'liga tutashadi va yo'lning g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 176 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 355 metr masofani o'tib, so'ng janubiy yo'nalishda 274 metr masofani o'tib, so'ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 234 metr masofani o'tib, keyin to'g'ri chiziq orqali sharqiy yo'nalishda 2 metr masofada zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 149 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}01'59,514''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'26,842''$).*

18-nuqtadan chegara chizig'i zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan janubiy yo'nalishda 92 metr o'tib, janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 184 metr masofani o'tib, keyin janubiy yo'nalishda 200 metr masofani o'tib, so'ng janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 185 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}01'39,606''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'20,174''$).*

19-nuqtadan chegara to'g'ri chiziq orqali g'arbiy yo'nalishda 21 metr masofada zovurni dala tuproq yo'lini kesib o'tib, Chorbuloqsoy soyiga tutashadi va soyning chap qirg'og'i bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 420 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 721 metr masofani o'tib, Chust, Kosonsoy va To'raqo'rg'on tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, Kenkulsoy soy bo'yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}01'07,529''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'25,263''$).*

D dan E gacha To'raqo'rg'on tumani yerlari bilan 20-54-nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

20-nuqtadan chegara to'g'ri chiziq orqali g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 27 metr masofada Kenkulsoy soyini kesib o'tadi va dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'lining sharq tomoni bilan janubiy yo'nalishda 213 metr masofada dala tomorqa chegarasiga tutashadi, so'ng dala tomorqa chegarasi bo'ylab janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 386 metr, so'ngra yo'lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 574 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}00'32,315''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'11,541''$).*

21-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 971 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $41^{\circ}00'04,859''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'03,572''$).*

22-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 209 metr masofada soyga tutashadi, keyin soyning suv oqimi bo'ylab o'ng qirg'og'i bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 511 metr masofani o'tib, soy qirg'og'i bo'yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $40^{\circ}59'48,027''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'22,708''$).*

23-nuqtadan chegara chizig'i soyning suv oqimi bo'ylab o'ng qirg'og'i bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 1421 metr masofada dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 216 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $40^{\circ}58'59,400''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'44,418''$).*

24-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo'nalishda 1115 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik $40^{\circ}58'25,867''$, sharqiy uzoqlik $71^{\circ}24'50,530''$).*

25-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lidan dala tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin dala tomorqa chegarasi bo'ylab g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 448 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan

26-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'18,074"*, *sharqiy uzoqlik 71°24'34,420"*).

26-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo'nalishda 847 metr masofada avtomobil yo'liga o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°58'00,637"*, *sharqiy uzoqlik 71°24'57,748"*).

27 – nuqtadan chegara chizig'i avtomobil yo'lining shimol tomoni bilan g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 1744 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'50,920"*, *sharqiy uzoqlik 71°23'44,464"*).

28 – nuqtadan chegara chizig'i avtomobil yo'lining shimol tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 3156 metr masofani o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'55,784"*, *sharqiy uzoqlik 71°21'29,751"*).

29 – nuqtadan chegara chizig'i avtomobil yo'lining g'arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 364 metr masofada yo'lni kesib o'tib, avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'44,591"*, *sharqiy uzoqlik 71°21'34,289"*).

30 – nuqtadan chegara chizig'i avtomobil yo'lidan ariqqa o'tadi va ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan umumiy janubiy-g'arbiy yo'nalishda 178 metr masofani o'tib, keyin janubiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 152 metr masofani o'tib dala tuproq yo'liga tutashadi, keyin yo'lining shimol tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 225 metr masofani o'tib, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°57'35,905"*, *sharqiy uzoqlik 71°21'16,376"*).

